



UO'K: 378.124

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14669465>

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MATEMATIKA FANIGA QIZIQISHNI OSHIRISH UCHUN INNOVATSION DARS USULLARI

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ИНТЕРЕСА К МАТЕМАТИКЕ У УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

INNOVATIVE TEACHING METHODS TO INCREASE INTEREST IN MATHEMATICS AMONG PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Sobirova Muqaddasxon Rustamjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisiligi 2-bosqich magistranti

E-mail: muqaddassobirova5@gmail.com

Annotatsiya.

Mazkur maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematika faniga bo'lgan qiziqishni oshirish maqsadida innovatsion dars usullarini qo'llashning ahamiyati va samaradorligini tahlil qilinib. O'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, ularning matematik fikrlash va muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv o'yinlar asosidagi metodlar, axborot texnologiyalaridan foydalanish kabi innovatsion usullarni bilan o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishini oshirishda va ularning boshlang'ich sinflarda muvaffaqiyatli tatbiq etilishi masalalariga yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarning qiziqishini oshirishda STEAM yondashuvi, muammoli ta'lim va o'zaro hamkorlik asosida tashkil etilgan topshiriqlar samaradorligi misollar bilan ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: *Matematika fikrlash, boshlang'ich ta'lim, innovatsion usullar, qiziqish, ijodiy fikrlash, interaktiv dars, STEAM yondashuvi, didaktik o'yinlar.*

Аннотация.

В данной статье анализируется важность и эффективность использования инновационных методов обучения с целью повышения интереса к математике у учащихся младших классов. Повысить интерес учащихся к математике с помощью инновационных методов, таких как современные педагогические подходы, методы, основанные на интерактивных играх и использовании информационных технологий для развития их математического мышления и

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematika faniga qiziqishni oshirish uchun innovatsion dars usullari

навыков решения задач, а также вопросы их успешного внедрения в начальных классах. Также подчеркнута эффективность заданий, организованных на основе STEAM-подхода, проблемного обучения и взаимного сотрудничества в повышении интереса учащихся на примерах, отображается.

Ключевые слова: *Математическое мышление, начальное образование, инновационные методы, любознательность, творческое мышление, интерактивный урок, STEAM-подход, дидактические игры.*

Annotation.

This article analyzes the importance and effectiveness of using innovative teaching methods in order to increase interest in mathematics among elementary school students. To increase students' interest in mathematics with innovative methods such as modern pedagogical approaches, methods based on interactive games, and the use of information technologies to develop their mathematical thinking and problem-solving skills. And the issues of their successful implementation in elementary grades are highlighted. In addition, the effectiveness of tasks organized based on STEAM approach, problem-based learning and mutual cooperation in increasing the interest of students with examples is displayed.

Keywords: *Mathematical thinking, elementary education, innovative methods, curiosity, creative thinking, interactive lesson, STEAM approach, didactic games.*

KIRISH

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarning intellektual rivojlanishi va asosiy bilimlarning shakllanishida hal qiluvchi davr hisoblanadi. Ayniqsa, matematika fani o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, analitik yondashuv va muammolarni yechish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, matematika ko'pincha murakkab va qiyin fan sifatida qabul qilinadi, bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida ushbu fanga qiziqishning pasayishiga olib kelishi mumkin. Ta'limning zamonaviy talablari o'quvchilarni faqatgina bilim bilan ta'minlashni emas, balki ularni mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalariga ega bo'lishga yo'naltirishni ham nazarda tutadi. Ushbu jarayonda innovatsion dars usullari va texnologiyalarni qo'llash muhim rol o'ynaydi. Innovatsion yondashuvlar boshlang'ich sinf o'quvchilarni faol o'quv jarayoniga jalb qilish, ularning qiziqishini oshirish va matematik bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Innovatsion dars usullari nafaqat o'quvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb qiladi, balki ular uchun qiziqarli va foydali bo'lgan muhitni yaratadi. Real hayotga asoslangan topshiriqlar, o'yinlar, zamonaviy texnologiyalar va STEAM yondashuvlari orqali matematika o'rganishga bo'lgan qiziqishni sezilarli darajada oshirish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boshlang'ich ta'limda matematika faniga qiziqishni oshirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar qatorida innovatsion yondashuvlar alohida o'rinni egallaydi. Zamonaviy pedagogik adabiyotlar interaktiv usullar, o'yin texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya vositalarining ta'lim jarayonidagi ahamiyatini keng ko'lamda yoritadi. Xususan, J. Brunerning kognitiv rivojlanish nazariyasi va J. Piagening bolalar tafakkuri xususiyatlariga oid tadqiqotlari o'quvchilarning matematik faoliyatga bo'lgan qiziqishini shakllantirishning psixologik asoslarini yoritadi.

Shuningdek, V.V. Davidov va D.B. Elkoninning rivojlantiruvchi ta'lim yondashuvlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali usullari sifatida qayd etiladi. Milliy pedagogik adabiyotlarda, jumladan, A.Qodirov va M.Xodjayevning ishlarida, matematika darslarida ijodiy va interaktiv metodlardan foydalanishning samaradorligi keng tahlil qilingan.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida innovatsion usullarni qo'llashning o'quvchilarga ta'sirini aniqlash va baholash quyidagi bosqichlardan iborat:

- Adabiyotlarni o'rganish orqali innovatsion dars usullarining amaliyotga joriy etilishi va ularning samaradorligini tahlil qilish;
- Boshlang'ich sinf matematika darslarida mavjud o'quv jarayonlarini kuzatish va tahlil qilish;
- Darslarda o'yin elementlari, interaktiv taqdimotlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali qiziqishni oshirish bo'yicha tadqiqot o'tkazish. Eksperimentga 2-4-sinf o'quvchilari jalb qilindi;
- O'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida matematikaga bo'lgan qiziqish darajasini aniqlash uchun so'rov va suhbatlar o'tkazildi;
- Eksperiment va so'rovlar natijalari asosida statistik tahlil o'tkazildi va innovatsion usullarning samaradorligi baholandi;
- Mazkur metodologik yondashuvlar yordamida matematika darslarida innovatsion usullarni qo'llash orqali o'quvchilarning qiziqishi va muvaffaqiyat darajasini oshirishga oid xulosalar chiqarildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Aniqlangan natijalar innovatsion dars usullarining samaradorligini ko'rsatib berdi. Olingan ma'lumotlar milliy va xalqaro adabiyotlarda qayd etilgan tadqiqotlar bilan hamohangdir. Jumladan: J. Brunerning o'quv jarayoniga o'yin elementlarini kiritish haqidagi qarashlari ushbu tadqiqotda ham o'z tasdig'ini topdi. Bolalar matematika fanini qiziqarli shaklda o'rganganlarida, ularning darsga jalb etilish darajasi ortadi. Shuningdek, Vygotskiy nazariyasidagi o'quvchilarning rivojlanish zonasini qo'llab-quvvatlash uchun interaktiv yondashuvlardan foydalanishning ahamiyati amalda o'zini tasdiqini topdi. Ushbu natijalar o'quvchilarning faqat matematik bilimlarini oshirish

bilan cheklanmay, balki ularning ijodiy fikrlash va muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qilganini ko'rsatdi.

Shunga qaramay, ayrim cheklovlar ham mavjud edi. Masalan, innovatsion texnologiyalarni qo'llashda texnik vositalarning yetishmasligi va barcha o'qituvchilar uchun bunday yondashuvlarni joriy qilishda bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish zarurati qayd etildi. Innovatsion dars usullarini qo'llash boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematika faniga bo'lgan qiziqishni sezilarli darajada oshiradi.

O'quvchilar darslarda faolroq ishtirok etishi. O'yin asosidagi usullar va interaktiv faoliyatlar ularni o'quv jarayoniga jalb qilishda muhim hisoblanadi.

Innovatsion usullar qo'llanilgan sinfda o'quvchilarning matematik bilimlarni tushunish va qo'llash ko'nikmalari yaxshiroq ekanligi aniqlandi. Bunda vizual materiallar, o'yin texnologiyalari va texnologik vositalarning o'rni katta.

Ota-onalar va o'qituvchilar innovatsion yondashuvlarning bolalarda matematikaga qiziqishni shakllantirishda samarador ekanligini tasdiqlashdi. So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, 90% ota-ona farzandlarining darsga nisbatan munosabati o'zgarib, ular uyda ham matematika bilan qiziqishni boshlaganligini qayd etdi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematika faniga bo'lgan qiziqishni oshirish uchun innovatsion dars usullarini qo'llash ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Ushbu usullarni kengroq tatbiq qilish uchun ta'lim tizimida o'qituvchilarni maxsus tayyorgarlikdan o'tkazish va texnologik resurslarni kengaytirish zarurdir.

XULOSA

Interaktiv yondashuvlar, o'yin asosidagi metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarni darsga faol jalb qiladi, ularning o'quv motivatsiyasini kuchaytiradi va bilimlarni samarali o'zlashtirishiga yordam beradi. Innovatsion dars usullari o'quvchilar uchun matematikani murakkab va qiyin fan sifatida emas, balki qiziqarli va ijodiy fikrlashni talab qiladigan faoliyat sifatida namoyon qildi. Bu o'z navbatida, o'quvchilarning matematikaga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantirdi. O'qituvchilarning innovatsion usullarni samarali qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish ushbu yondashuvlarning muvaffaqiyatli joriy qilinishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchilar uchun maxsus treninglar tashkil etish va tajriba almashish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Matematika ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish nafaqat o'quvchilarning qiziqishini oshirdi, balki mavzularni tushunishni ham osonlashtirdi. Bu jarayonda texnologik resurslarning yetarli darajada ta'minlanishi muhim ahamiyatga ega.

Innovatsion dars usullari nafaqat matematik bilimlarni mustahkamladi, balki o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini

rivojlantiradi. Hamda o'quvchilarning intellektual rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G.Begimqulova, Matematika o'qitish metodikasi. T:,O'qituvchi, 2020.
2. Z.Yusupov, Boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlar. S:, 2021.
3. N.Qayumova, STEAM ta'limi va matematika. T: Fan va Texnologiya, 2019.
4. T.V.Ivanova, Didaktik o'yinlar orqali matematika o'rgatish. M: Prosveshchenie, 2018.
5. A.T.Islomov, N.R.Usmanov, Matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2020.
6. S.O'rniyazov, Matematika darslarida problemali o'qitish metodlari. T: Yangi nashr, 2021.
7. F.Xolmatov, Pedagogik innovatsiyalar va metodik yondashuvlar. T: O'qituvchi nashriyoti, 2018.